

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI RIVOJLANISHINING IJOBIY TENDENSIYALARI TAHLILI

Madraximov Ilxom Kamilovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.23791928

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorining 2019–2024-yillarda shakllangan ijobiy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Sug‘urta portfelining tarkibiy elementlari jumladan, mahsulotlar, mijozlar segmenti, geografik qamrov, risk profili va muddatlar bozor barqarorligiga ta’siri nuqtayi nazaridan baholanadi. Tadqiqot natijalari sug‘urta mukofotlari hajmining barqaror o‘sishi, kompaniyalar tarmog‘ining kengayishi, hududlarda xizmatlar qamrovining ortishi va sug‘urta zichligining sezilarli oshishi bozorning ijobiy dinamikasini yuzaga chiqarayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, zararlilik koeffitsiyentining me’yoriy darajada ushlab turilishi va diversifikatsiyaning ortib borishi sug‘urta sektorining moliyaviy barqarorligini mustahkamlayotgani aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, sug‘urta portfeli, diversifikatsiya, sug‘urta mukofotlari, zararlilik koeffitsiyenti, sug‘urta zichligi, risklarni boshqarish

ANALYSIS OF POSITIVE DEVELOPMENT TRENDS IN THE INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the positive development trends observed in Uzbekistan’s insurance market during 2019–2024. The structural elements of the insurance portfolio—including product types, customer segments, geographic coverage, risk profile, and contract maturity—are evaluated in terms of their impact on overall market stability. Research findings indicate steady growth in insurance premiums, expansion of company networks, increased regional accessibility of services, and a significant rise in insurance density, all of which reflect the sector’s positive dynamics. Additionally, the maintenance of the loss ratio within acceptable limits and the increasing level of diversification demonstrate the strengthening financial stability of the insurance sector.

Keywords: insurance market, insurance portfolio, diversification, insurance premiums, loss ratio, insurance density, risk management.

Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozori iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberallashtirish, moliyaviy bozorlarni modernizatsiya qilish, shuningdek, sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borishi sug‘urta sektorining sifat jihatdan yangilanishiga zamin yaratmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan tartibga solish

bo‘yicha yangicha yondashuvlar, soliq va institutsional islohotlar, shuningdek, raqobatning kuchayishi sug‘urta kompaniyalarining faoliyatini yanada samarali tashkil etishiga turtki bermoqda. Bugungi kunda sug‘urta bozori nafaqat iqtisodiy xavflarni kamaytirish, balki aholining moliyaviy barqarorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida kuzatilayotgan ijobiy tendensiyalarning asosiy omillaridan biri – raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi va sug‘urta mahsulotlarining innovatsion shakllarining paydo bo‘lishidir. Sug‘urta kompaniyalari mobil ilovalar, onlayn polis rasmiylashtirish, masofaviy identifikatsiya va elektron to‘lov tizimlari orqali xizmat ko‘rsatish sifatini oshirmoqda. Bu esa nafaqat xizmat ko‘rsatish jarayonini soddalashtirmoqda, balki sug‘urtaga bo‘lgan ishonchni mustahkamlab, aholining sug‘urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shuningdek, biznes uchun mo‘ljallangan kompleks sug‘urta paketlari, agro-sug‘urta, kiberxavfsizlik sug‘urtasi kabi yangi mahsulotlar bozorning diversifikatsiyalashgan tuzilishini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda sug‘urta bozorining kapitallashuvi oshib, xalqaro reyting agentliklari tomonidan milliy sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi ijobiy baholanmoqda. Xalqaro qayta sug‘urta institutlari bilan hamkorlikning kengayishi, risklarni boshqarishning zamonaviy standartlari, Solvency II tamoyillariga mos tizimlarning joriy etilishi sug‘urta portfeli sifati va barqarorligini yanada oshirmoqda. Kichik biznes va aholining sug‘urtaga bo‘lgan qiziqishi o‘sib borayotgani, mehnat migrantlari, yoshlar va agro sektor uchun maxsus dasturlarning paydo bo‘lishi sug‘urta bozorining ijobiy dinamikasini ta’kidlaydi. Ushbu ijobiy tendensiyalar O‘zbekiston sug‘urta bozorining barqaror, ochiq va raqobatbardosh tizim sifatida shakllanib borayotganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishiga oid ilmiy tadqiqotlar va rasmiy monitoring hisobotlarida bozorning barqaror o‘sish tendensiyalari alohida ta’kidlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan e’lon qilinadigan yillik statistik sharhlarda sug‘urta mukofotlari hajmining izchil o‘sib borayotgani, kompaniyalar kapitallashuvining kuchayib, bozorning institutsional tarkibi takomillashayotgani ijobiy omil sifatida qayd etiladi (Central Bank of Uzbekistan, 2023). Ushbu hisobotlarda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan sug‘urta xizmatlaridan foydalanish ko‘lamining kengayayotgani sektordagi talab ortishini tasdiqlaydi.

Adabiyotlarda raqamli transformatsiya sug‘urta bozorining eng muhim ijobiy tendensiyalaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Sanoat bo‘yicha tahliliy sharhlarda onlayn polis rasmiylashtirish, mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish, masofaviy identifikatsiya, elektron to‘lov tizimlarining joriy etilishi sug‘urta xizmatlarining qulayligi va tezkorligini ta’minlagani ta’kidlanadi. Bu jarayon aholida sug‘urtaga bo‘lgan ishonchning oshishiga hamda bozorning raqobatbardoshligini mustahkamlashiga xizmat qilgani ilmiy manbalarda qayd etiladi (RB Asia, 2024).

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda sug‘urta mahsulotlarining diversifikatsiyasi va xalqaro qayta sug‘urta bilan hamkorlikning kengayishi bozor rivojining ijobiy yo‘nalishlari sifatida baholanadi. Tahliliy hisobotlarda agro-sug‘urta, tibbiy sug‘urta paketlari, kiberxavfsizlik sug‘urtasi kabi yangi mahsulotlarning paydo bo‘lishi sug‘urta portfelining tarkibiy modernizatsiyasi va risklarni boshqarish imkoniyatlarining kengayganini ko‘rsatadi. Xalqaro qayta sug‘urta tashkilotlari bilan aloqalarning mustahkamlanishi esa risklarni taqsimlash sifatini oshirib, kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini qo‘llab-quvvatlayotgan omil sifatida ko‘rsatiladi (Axco Insurance Intelligence, 2023).

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar O‘zbekiston sug‘urta bozorida uchta asosiy ijobiy tendensiya kuchayib borayotganini ko‘rsatadi: (1) bozor hajmining barqaror kengayishi va kapitallashuvning oshishi, (2) raqamli texnologiyalar joriy etilishi orqali xizmatlar sifati va qulayligining oshishi, (3) mahsulotlar turlarining ko‘payishi hamda risk-menejment tizimlarining takomillashuvi. Ushbu tendensiyalar sug‘urta bozorining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun muhim asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda O‘zbekiston sug‘urta bozorining 2019–2024-yillardagi rivojlanish tendensiyalari rasmiy statistik ma’lumotlar, Markaziy bank va Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligining yillik hisobotlari asosida tahlil qilindi. Sug‘urta portfeli tarkibiy elementlari bo‘yicha taqqoslash, dinamik qiyosiy tahlil va strukturalash usullari qo‘llanib, sug‘urta mukofotlari, sug‘urta zichligi, zarar-lilik koeffitsiyenti, filiallar tarmog‘i va agentlar soni kabi ko‘rsatkichlarning o‘zgarish sur’atlari baholandi. Shuningdek, bozorning barqarorligiga ta’sir etuvchi diversifikatsiya darajasi va risk boshqaruvi elementlari portfel mezonlari asosida tizimli o‘rganildi.

Tahlil va natijalar.

Sug‘urta portfelining samarali shakllanishi, birinchi navbatda, uning tarkibiy elementlarini to‘g‘ri aniqlashga bog‘liq. Bular quyidagilardan iborat:

sur‘urta mahsulotlari turlari (hayot, mol-mulk, transport, javobgarlik va boshqalar);

-mijozlar segmenti (korporativ, yakka tartibdagi, kichik biznes);

-geografik diversifikatsiya (ichki va tashqi bozorlardagi faoliyat);

-risk kategoriyasi va darajasi (tug‘ma xavf, orttirilgan xavf, tabiat xavflari);

-muddat bo‘yicha segmentatsiya (qisqa, o‘rta va uzoq muddatli shartnomalar)[1].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, sug‘urta portfeli tarkibiy tuzilmasini quyidagicha tizimlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1-jadval.

Sug‘urta portfeli tarkibiy tuzilmasini tizimli tavsifi[2]

Tarkibiy element	Tasnif	Strategik ahamiyati
Sug‘urta mahsulotlari	Hayot, mol-mulk, transport, sog‘liq, javobgarlik va boshqalar	Diversifikatsiya darajasini belgilaydi
Mijoz segmentlari	Jismoniy va yuridik shaxslar, kichik biznes	Risk va daromad nisbati boshqaruvi
Geografik ko‘lam	Ichki va tashqi bozorlar, regionlar kesimi	Tavakkalchilik va raqobat darajasini nazorat qilish
Muddatlar	Qisqa, o‘rta va uzoq muddatli shartnomalar	Likvidlik va kapital oqimi bilan bog‘liq
Risk profili	Xavf darajasi bo‘yicha ajratilgan mahsulotlar	Portfelning umumiy risk bahosi

Shu asosda mualliflik qarashi sifatida taklif qilamizki, sug‘urta portfeli tarkibini tahlil qilishda to‘rtta strategik mezonni ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) mahsulotlar (turli sug‘urta turlari); 2) mijozlar segmentlari; 3) geografik qamrov; 4) tavakkalchilik darajasi. Bularning har biri alohida ko‘rib chiqilishi bilan birga, o‘zaro uyg‘unlikda kompleks baholanishi lozim. Bu yondashuv kompaniyaga riskni minimallashtirish, daromadni barqarorlashtirish va tartibga soluvchilarning kapitallik talablariga moslashishga xizmat qiladi.

[1] OECD. (2021). Insurance Markets in Figures. https://www.oecd.org/finance/insurance/


[2] Muallif ishlanmasi.

O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi holatni to‘liq anglash uchun portfel tahlili quyidagi strategik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

- sug‘urta turlari kesimida portfeldagi muvozanatni o‘rganish;
- diversifikatsiya darajasi orqali kompaniyalar barqarorligini baholash;
- risklarni taqsimlashda qayta sug‘urta va moliyaviy instrumentlardan foydalanish amaliyotini tahlil qilish;
- milliy va xalqaro sug‘urta bozorlari bilan integratsiya jarayonlarini aniqlash.

O‘zbekiston sug‘urta bozori so‘nggi yillarda barqaror va jadal rivojlanish bosqichiga kirib kelmoqda. Bu jarayon quyidagi asosiy ijobiy tendensiyalar orqali yaqqol namoyon bo‘lmoqda:

1. Sug‘urta mukofotlari hajmining yuqori o‘sishi. So‘nggi besh yil davomida sug‘urta mukofotlari o‘rtacha 40% atrofida o‘sdi. Bu sug‘urta xizmatlariga talabning barqaror ortib borayotganidan, aholi va tadbirkorlik subyektlarining sug‘urtaga nisbatan ishonchi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Ushbu ko‘rsatkich sug‘urta bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.



1-rasm. Sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi, 2019-2024-yil[3]

2. Sug‘urta kompaniyalari sonining ko‘pligi va barqarorligi. Mamlakatda umumiy sug‘urta sohasida 33 ta kompaniya faoliyat yuritmoqda. Ulardan “O‘zagrosug‘urta” AJ va “O‘zbekinvest KEIS” AJ davlat ishtirokidagi yirik milliy brend sifatida bozorda 20 yildan ortiq faoliyat yuritib kelmoqda. Bundan tashqari, hayotni sug‘urtalash yo‘nalishida 5 ta kompaniya faoliyat yuritmoqda. Bu kompaniyalar sonining ko‘pligi raqobatni kuchaytiradi va xizmatlar sifatini oshiradi.


3. Hududlarda sug‘urta xizmatlarining keng qamrovi. Sug‘urta kompaniyalari mamlakatning barcha hududlarida filial va vakolatxonalar orqali keng faoliyat yuritmoqda. 2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, 1910 ta filial mavjud bo‘lib, shundan 552 tasi qishloq joylarda joylashgan. Bu aholining, ayniqsa qishloq joylaridagi aholining sug‘urta

[3] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi statistik ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

xizmatlariga bo‘lgan real imkoniyatlarini oshiradi va sug‘urtaning hududiy qamrovini ta’minlaydi.

4. Sug‘urta agentlari tarmog‘ining kengayishi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatda 4,8 mingdan ortiq sug‘urta agentlari faoliyat yuritmoqda. Ko‘p sonli agentlar mavjudligi aholining sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabini tezkor qondirishga, sug‘urta madaniyatini oshirishga va bozor infratuzilmasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta bozorining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari – sug‘urta zichligi, YaIMdagi ulushi va zararlilik koeffitsiyenti – ijobiy tendensiyada rivojlanmoqda. Sug‘urta zichligi va mukofotlarning YaIMdagi ulushining izchil ortishi bozor salohiyati kengayayotganidan dalolat bersa, zararlilik koeffitsiyentining nazorat ostida bo‘lishi sug‘urtachilarning moliyaviy barqarorligini ta’minlayotganini bildiradi.




2-rasm. O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishining ijobiy tendensiyalari tahlili[4]

Shuningdek, zararlilik koeffitsiyenti (to‘lovlarning mukofotlarga nisbati) ham muhim ahamiyat kasb etadi. 2019-yilda u 28,2% bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda eng past – 20,5% darajagacha tushgan. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich yana o‘sish yo‘nalishiga o‘tib, 2023-yilda 24,7% ni tashkil etdi. Ushbu o‘zgarish sug‘urta kompaniyalarining risklarni boshqarish strategiyasi va portfel sifatiga bog‘liq.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi statistik ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

2019–2024-yillar davomida O‘zbekiston sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari ijobiy o‘sish tendensiyalarini namoyon etdi. Birinchi navbatda, sug‘urta zichligi (aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti miqdori) 2019-yildagi 5,9 AQSh dollaridan 2024-yilda qariyb 20 AQSh dollariga oshdi. Bu ko‘rsatkich uch barobardan ortiq o‘sishni bildiradi va aholining sug‘urta xizmatlaridan foydalanish darajasi sezilarli ravishda kengayib borayotganidan dalolat beradi.



3-rasm. O‘zbekiston sug‘urta bozorining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi, 2019-2024-yillar[5]

Ikkinchi muhim ko‘rsatkich – mukofotlarning YaIMdagi ulushi. U 2019-yildagi 0,4% ko‘rsatkichdan 2024-yilda 0,9% ga yetgan. Bu o‘sish hali past darajada bo‘lsada, sug‘urta sektorining milliy iqtisodiyotdagi hissasi bosqichma-bosqich ortib borayotganini anglatadi. Mazkur tendensiya sug‘urta kompaniyalarining hajman kengayishi, investitsiyalar oqimining oshishi va yangi sug‘urta mahsulotlari joriy etilishi bilan izohlanadi.

Xulosa

O‘zbekiston sug‘urta bozorining 2019–2024-yillar davomida kuzatilgan rivojlanish jarayoni tahlili ushbu sektor milliy iqtisodiyotning barqaror segmentiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi. Sug‘urta portfelining tarkibiy elementlari — mahsulotlar, mijozlar segmenti, geografik qamrov, muddatlar va risk profili — bozorni yanada barqaror va diversifikatsiyalashgan tizim sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tahlillar sug‘urta mukofotlari hajmining yillik o‘rtacha 40 foizlik o‘sish sur’atiga ega ekanini, kompaniyalar sonining ko‘pligi va raqobatning kuchayishi esa xizmat sifati hamda mahsulotlar taqdimotini sezilarli darajada takomillashtirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi statistik ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Hududlarda filiallar va agentlar tarmog‘ining keng qamrovi sug‘urta xizmatlarining real eldaromadga kirishini ta’minlab, aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchi va ehtiyojini kuchaytirmoqda. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti 5,9 dollardan 20 dollarga oshgani bozorning kengayib borayotganini tasdiqlaydi. Mukofotlarning YaIMdagi ulushining 0,4 foizdan 0,9 foizga ko‘tarilishi esa sug‘urta xizmatlarining iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirayotganini bildiradi. Zararlilik koeffitsiyentining 20–28 foiz oralig‘ida shakllanishi sug‘urta kompaniyalarining riskni qamrab olish va portfel boshqaruvi sifatini saqlab qolayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

Axco Insurance Intelligence. (2023). *Uzbekistan: Insurance market report*. Axco Global Insurance Information.

Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Annual report on the insurance market of Uzbekistan*. https://www.cbu.uz

Insurance Market Development Agency of Uzbekistan. (2023). *Statistical bulletin of the insurance sector*. https://www.sima.uz

RB Asia. (2024). *Uzbekistan insurance market analysis: Trends and forecasts 2024*. RB Asia Research & Analytics.

UNDP Uzbekistan. (2022). *Strengthening risk-based supervision and Solvency II principles in Uzbekistan’s insurance sector*. United Nations Development Programme. https://www.uz.undp.org